

**TASHKENT INTERNATIONAL UNIVERSITY
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc 22/29.12.2023.I.175.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

RENESSANS TA'LIM UNIVERSITETI

ABSALAMOV AKRAM TOLLIBOYEVICH

**MONETAR SIYOSAT TRANSMISSION MEXANIZMINI
TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit

**Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent shahri – 2024 yil

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата докторской (DSc) диссертации

Content of the Doctoral (DSc) dissertation abstract

Absalamov Akram Tolliboyevich

Monetar siyosat transmission mexanizmini takomillashtirish 3

Абсаламов Акрам Толлибоевич

Совершенствование механизма трансмиссии монетарной политики 35

Absalamov Akram Tolliboevich

Improving the monetary policy transmission mechanism 69

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works 74

**TASHKENT INTERNATIONAL UNIVERSITY
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc 22/29.12.2023.I.175.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

RENESSANS TA'LIM UNIVERSITETI

ABSALAMOV AKRAM TOLLIBOYEVICH

**MONETAR SIYOSAT TRANSMISSION MEXANIZMINI
TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit

**Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent shahri – 2024 yil

Iqtisodiyot fanlari doktori (Dsc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.4.DSc/Iqt780 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi Renessans ta'lim universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) ilmiy kengash veb-sahifasi (www.tiu.uz) va «ZiyoNet» axborot-ta'lim portaliga (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:	Jumayev Nodir Xosiyatovich iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	Berdiyarov Baxriddin Tavasharovich iqtisodiyot fanlari doktori, professor Mirzayev Farhod Isamovich iqtisodiyot fanlari doktori, professor Raxmatov Xasan Utkirovich iqtisodiyot fanlari doktori
Yetakchi tashkilot:	Trustbank XAB

Dissertatsiya himoyasi Tashkent International University huzuridagi DSc.22/29.12.2023.L175.01 raqamli ilmiy kengashning 2024-yil "30" 11 kuni soat 10⁰⁰ da majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100114, Toshkent shahri, Kichik xalqa yo'liko'chasi, 7-uy. Tel.: (99895) 131-55-55; faks: (99895) 131-55-55; e-mail: info@tiu.uz

Dissertatsiya bilan Tashkent International Universityning Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (15 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100114, Toshkent shahri, Kichik xalqa yo'liko'chasi, 7. Tel.: (99895) 131-55-55; faks: (99895) 131-55-55; e-mail: info@tiu.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil "16" 11 kuni tarqatildi.
(2024 yil "01" 11 da 24 raqamli reestr bayonnomasi).



Sh.Sh. Turayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

I.X. Abduraxmonov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

D.A. Raxmonov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotasiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Jahonda iqtisodiyotda yuzaga kelayotgan yuqori inflyatsiya darajasini pasaytirish, iqtisodiy o'sishni ta'minlash uchun monetar siyosat transmission mexanizmidan foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Rivojlangan davlatlar tajribasiga ko'ra, yuqori darajada tashkil etilgan kapital bozori, davlat qimmatli qog'ozlar bozori, pul bozori, valyuta bozorlari hamda kredit va depozit bozorlari monetar siyosat transmission mexanizmi kanallari samaradorligini oshirishning zaruriy sharti hisoblanmoqda. Oxirgi vaqtlarda dunyo iqtisodiyotining o'sishga bog'liq prognozlar ijobiy tus olmoqda. Xususan, dunyo iqtisodiyotining o'sishi o'rtacha 2024-yilda 3,6 foizdan 2025-yilda esa 4,2 foizgacha ko'tarilishi prognoz qilinmoqda.¹ Biroq, mintaqalarda hali ham iqtisodiy o'sish sur'atlarining pastligi, monetar siyosati transmission kanallarining samaradorligida sezilarli to'siqlarning mavjudligi va buning natijasida iqtisodiyotni moliyalashtirishda foizlarning yuqoriligi kabi muammolarga duch kelmoqda.

Jahonda yetakchi ilmiy tadqiqot institutlari va oliy ta'lim muassasalarining ilmiy tadqiqot yo'nalishlarida iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda monetar siyosat transmission mexanizmini va uning kanallari samaradorligini oshirish yo'llari ustuvorlik kasb etmoqda. Mazkur ilmiy tadqiqot ishlarida foiz kanali, valyuta kanali hamda bank kredit kanallarining iqtisodiy barqarorlikka ta'siri ta'siri kabi masalalar empirik tahlillar orqali ochib berilgan. Biroq, transmission mexanizm kanallarining kapital bozoriga, pul bozoridagi foiz stavkalariga, bank kreditlari va depozit foiz stavkalari va ularning o'sishiga ta'siri hamda inflyatsiyani jilovlashdagi samaradorligi kabi masalalar yetarlicha ochib berilmagan. Xususan, kapital bozorini rivojlantirish, transmission mexanizm kanallarini yalpi talabning tarkibiy qismlariga ta'siri, inflyatsiyani jilovlashdagi o'rni va valyuta kursi orqali to'lov balansi barqarorligiga erishish kabi masalalar dolzarbligini saqlab kelmoqda. Ushbu masalalar monetar siyosat transmission mexanizmi kanallari samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borishni taqazo etmoqda.

O'zbekistonda inflyatsion targetlash rejimini samarali qo'llashga bo'lgan e'tiborning jadallashuvi kreditlar bozorida foizlarni pasaytirish, qisqa va o'rta muddatlarda iqtisodiy o'sish sur'atini oshirish monetar siyosat transmission mexanizmi kanallari samaradorligini oshirishni talab etmoqda. Monetar siyosat transmission mexanizmi kanallari samaradorligini oshirishda moliya bozorida indikativ foiz stavkaning mavjudligi va uning bozor foiz stavkalariga sezilarli ta'sirini ta'minlash, hamda valyuta kanalining tashqi savdo operatsiyalar hajmiga ta'sirini ta'minlash muhim xususiyatga ega. Shuningdek, davlat qimmatli qog'ozlari foiziga ta'sir etish orqali davlat byudjeti xarajatlariga, jismoniy shaxslarga ajratilayotgan kreditlar foizi orqali esa aholi iste'mol xarajatlariga ta'sir etish bilan transmission mexanizm samaradorligini oshirish dolzarb masalalardan biridir. Bu esa, asosiy foiz stavkaning bozor foiz stavkalariga ta'sirini oshirishni, bank kredit kanali orqali monetar siyosatning tijorat banklari resurs bazasiga ta'sir etishini, valyuta bozori orqali valyuta kanalining savdo balansiga ta'sirini oshirishni tadqiq qilishning dolzarbligini qo'rsatib beradi.

¹ <https://www.imf.org/en/Publications/WEO/weo-database/2024/October/download-entire-database>

Ushbu ilmiy tadqiqot ishi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60 son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni 2020 yil 5 oktyabrdagi PF-6079-son «Raqamli O‘zbekiston-2030» strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni, 2020 yil 12 maydagi PF-5992-son «2020 2025 yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmoni, 2017 yil 2 sentyabrdagi PF-5177-son “Valyuta siyosatini liberallashtirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni, 2023 yil 18 avgustdagi PQ-283-son “Davlat ishtirokidagi korxonalar va tijorat banklarini isloh qilish mexanizmini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, 2017 yil 12 sentyabrdagi PQ-3270-son «Respublika bank tizimini yanada rivojlantirish va barqarorligini oshirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi qarori va 2018 yil 23 martdagi PQ-3620-son «Bank xizmatlari ommabopligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi qarorlari va boshqa ushbu sohadagi normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi²:

Monetar siyosat transmission mexanizmi kanallari samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy-amaliy tadqiqotlar xalqaro ilmiy tashkilotlar, ilmiy-tadqiqot markazlar, Markaziy banklar, oliy ta‘lim muassasalari tomonidan turli yo‘nalishlarda amalga oshirib kelinmoqda. Jumaladan, Xalqaro valyuta fondi (International Monetary Fund (IMF)), Jahon banki (The World bank, AQSh), Iqtisodiy tadqiqotlar milliy byurosi (National Bureau of Economic Research-NBER (AQSh)), Xalqaro hisob-kitob banki (Bank of International Settlement, Shveysariya), Federal zaxira tizimi (Federal Reserve System (AQSh)), Angliya banki (Bank of England (Angliya)), Yevropa markaziy banki (European Central Bank (Evropa)), O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki (O‘zbekiston), Princeton University (AQSh), Harvard University (AQSh), Oxford University (Buyuk Britaniya), University of Bonn (Germaniya), Rossiya Federasiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti, (Финансовый университет при Правительстве Российской Федерации) tomonidan amalga oshirilmoqda.

Jahonda monetar siyosat transmission mexanizmi kanallari samaradorligini oshirishning ilmiy-nazariy, tashkiliy-iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy jumladan, bank kredit kanalining tijorat banklari balansiga ta’siri, xo‘jalik yurituvchi subyektlarning aktivlari narxlariga ta’siriga baho berish (European Central Bank); aktivlar bahosi kanali hamda monetar kanallarning inflyatsiyani jilovlashdagi o‘rnini turli

² Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi www.imf.org, www.worldbank.org, www.nber.org, www.ecb.europa.eu, www.bis.org, www.federalreserve.gov, www.bankofengland.co.uk, www.cbu.uz va boshqa manbalar asosida tayyorlangan.

ekonometrik modellar asosida tadqiq etish (International Monetary Fund, IMF), noan'anaviy monetar siyosat transmission mexanizm kanallari faoliyatining iqtisodiy barqarorlikka ta'siri tahlil etish (National Bureau of Economic Research-NBER), rivojlanayotgan davlatlarda foiz kanali bilan valyuta kanali uyg'unligini ta'minlash (Финансовый университет при Правительстве Российской Федерации, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki) bilan bog'liq tadqiqotlar keng ko'lamda olib borilmoqda.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Monetar siyosat transmission mexanizmini takomillashtirishning ilmiy-amaliy jihatlarini xorijlik iqtisodchi olimlardan J.M.Keynes, Irving Fisher, Wicksell Knut, M.Friedman, J.Tobin, J.M.Fleming, R.A.Mundell, R.Dornbusch, F.Modigliani, A.Ando, J.E.Stiglitz, B.Bernanke, M.Gertler, A.S.Blinder, Frederic S. Mishkin, V.Ramey, A.K.Kashyap, J.C.Stein, J.B.Taylor, Peter N. Ireland, A.Cesa-Bianchi, G.Thwaites va A.Vicondoa, E.Falck, M.Hoffmann va P.Hürtgen, G.B.Eggertsson, R.E.Juelsrud, L.H.Summers va E.G.Wold³, shu jumladan rossiyalik iqtisodchi olimlardan С.Р.Моисеев, Д.И.Кондратов, Е.А. Леонтьева, И.С.Иванченко, С.А.Андрюшин, С.М.Дробышевский, И.Л.Кавицкая, П.В.Трунин,⁴ va boshqalarning ilmiy

³Дж.М. Кейнс. (2019). Общая теория занятости, процента и денег. Москва, Юрайт. Irving Fisher (1963). The Purchasing Power of Money: Its Determination and Relation to Credit Interest and Crises/ Rev. Ed. New York: reprints of Economics Classics. Wicksell Knut (1950). Lectures on Political Economy/ Vol. 2. Edited by Lionel Robins. London. Routledge and Kegan Paul Ltd. Friedman M.A. (1957). Theory of the Consumption Function. NBER Books No.57-1, September. J. Tobin (1969). A General Equilibrium Approach to Monetary Theory/ Journal of Money, Credit and Banking №1. Fleming J.M. (1962). Domestic Financial Policies under Fixed and Under Floating Exchange Rates. International Monetary Fund Staff Papers 9. Mundell R.A. (1963). Capital Mobility and Stabilization Policy under Fixed and Flexible Exchange Rates. Canadian Journal of Economics and Political Science 29. Dornbusch R. (1976). Expectations and Exchange Rate Dynamics. Journal of Political Economy 84. Ando A., Modigliani F. (1963). The "Life Cycle" Hypothesis of Saving: Aggregate Implications and Tests. American Economic Review, 53 (1). Blinder A.S., Stiglitz J.E. (1983). Money, Credit Constraints and Economic Activity. American Economic Review 73. Bernanke B., Blinder A. (1988). Credit, Money and aggregate Demand/ The American Economic Review. №78. Bernanke B. Gertler M. (1995). Inside the Black Box: The Credit Channel of Monetary Policy Transmission. Journal of Economic Perspectives, 9(4). Bernanke, B. S. (2020). The new tools of monetary policy. American Economic Review, 110(4), 943-983. Valerie Ramey (1993). How important is the credit channel in the transmission of monetary policy/ Cornege – Rochester Conference Series on Public Policy Vol. 39. North-Holland – Elsevier Science Publishers B.V. Frederic S. Mishkin (1995). Symposium on the Monetary Transmission Mechanism/ The journal of Economic Perspective Vol. 9, No. 4. Kashyap A. K., Stein J. C. (1995). The Impact of Monetary Policy on Bank Balance Sheets. Carnegie-Rochester Conference Series on Public Policy, 42(1). Taylor J. B. (1995). The Monetary Transmission Mechanism: An Empirical Framework. Journal of Economic Perspectives, 9(4). Peter N. Ireland (2005). The Monetary Transmission Mechanism / FRB of Boston WP No. 06-1. Cesa-Bianchi, A., Thwaites, G., & Vicondoa, A. (2020). Monetary policy transmission in the United Kingdom: A high frequency identification approach. European Economic Review, 123, 103375. Falck, E., Hoffmann, M., & Hürtgen, P. (2021). Disagreement about inflation expectations and monetary policy transmission. Journal of Monetary Economics, 118, 15-31. Eggertsson, G. B., Juelsrud, R. E., Summers, L. H., & Wold, E. G. (2024). Negative nominal interest rates and the bank lending channel. Review of Economic Studies, 91(4), 2201-2275.

⁴Моисеев С.Р. (2002). Трансмиссионный механизм денежно-кредитной политики/ Финансы и кредит №18. Д.И.Кондратов. (2010). Трансмиссионный механизм денежно – кредитной политики Еврoзоны/ Научные труды: Институт народно-хозяйственного прогнозирования РАН.-№8. Е.А.Леонтьева. (2012). Механизм кредитно-денежной трансмиссии в России/ Working Paper №175 SEFIR. Леонтьева Е.А. (2013). Механизм кредитно-денежной трансмиссии в России/ Российская академия народного хозяйства и государственной службы при Президенте Российской Федерации. Москва. Иванченко И.С., Рыбчинская И.В. (2007). Проблемы функционирования в России процентного канала трансмиссионного механизма денежно-кредитного регулирования/ Финансовые исследования №14. Иванченко И.С.(2006). Исследование российского трансмиссионного механизма денежно-кредитной политики/ Финансы и кредит. -№14. Андрюшин С.А. (2013). Трансмиссионный механизм денежно-кредитной политики центральных банков в условиях глобального финансового кризиса/ Финансы и кредит. Дробышевский С.М., Трунин П.В., Каменских М.В. (2008). Анализ трансмиссионных механизмов денежно-кредитной политики в российской экономике Москва:

ishlarida atroflicha o'rganilgan va tahlil etilgan. O'zbekistonlik iqtisodchi olimlardan T.Qoraliyev, N.Jumayev, Sh.Abdullayeva, O.Namozov, T.Boyoqulov, O.Sattarov, M.Kurbonbekova, U.Dustkobilov va boshqalar⁵ pul-kredit tizimi, kredit mexanizmi, bank tizimi barqarorligi, xalqaro valyuta-kredit munosabatlari, Markaziy bank valyuta siyosati hamda markaziy bank pul-kredit siyosati instrumenlarining iqtisodiyotga ta'siri yuzasidan ilmiy tadqiqotlar olib borishgan. Biroq monetar siyosati transmission mexanizmi kanallarining iqtisodiyotga ta'siri ilmiy-nazariy, amaliy va uslubiy tomonlari o'zbekistonlik iqtisodchi olimlari tomonidan alohida tadqiqot sifatida o'rganilmagan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasalarining ilmiy tadqiqot ishlar rejalari bilan bog'liqligi. Mazkur dissertatsion tadqiqot mavzusi Renessans ta'lim universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi bilan bog'liq holda bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi monetar siyosati transmission mexanizmini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-uslubiy takliflar va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish hisoblanadi.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

monetar siyosati transmission mexanizmining ilmiy-nazariy asoslarini tadqiq qilish;

monetar siyosati transmission mexanizmining boshqa kanallari xususida mahalliy va xorijiy olimlarning qarashlarini tahlil qilish;

mexanizm kanallarini iqtisodiyotga ta'sir bosqichlarining metodologik asoslarini tadqiq qilish;

mexanizm kanallari samaradorligini qiyosiy va empirik tahlil qilishning metodologik asoslarini tadqiq qilish;

transmission mexanizm foiz kanali samaradorligini qiyosiy va empirik baholash;

transmission mexanizm bank kredit kanali faoliyatining amaldagi holati tahlil qilish va tegishli xulosalar olish;

ИЭПП. Трунин П.В., Князев Д.А., Саттаров А.М. (2010). Анализ независимости центральных банков РФ, стран СНГ центральных банков РФ, стран СНГ и Восточной Европы/ Москва: ИЭПП. Кавицкая И.Л. (2011). Финансовый кризис и политика центрального банка/ Журнал институциональных исследований – Том 3, №4. ⁵Коралиев Т., Ортиков У. (2009). Банк ресурсларини бошқариш/ Монография – Тошкент. Азизов У., Коралиев Т. ва бошқ. (2016). Банк иши/ Тошкент – Иқтисод-молия. Абдуллаева Ш.З. (2005). Банк рисклари ва кредитлаш/ Тошкент-Иқтисод-молия. Абдуллаева Ш.З. (2014). Пул муомаласи ва кредит/ Тошкент –Иқтисод-молия. Додиев Ф.У. и другие. (2012). Оценка каналов трансмиссионного механизма денежно-кредитной политики в Узбекистане/ Исследовательский проект Института прогнозирования и макро-экономических исследования при поддержке Программы развития ООН. – Ташкент. Намозов О.Ш. (2001). Монетарная политика в переходной экономике: концептуальные подходы и программные направления. Дисс.на соис.уч.ст. д.э.н.-Ташкент. Бобокулов Т.И. (2008). Ўзбекистон Республикасида миллий валюта курсининг барқарорлигини таъминлаш борасидаги муаммолар ва уларни ҳал қилиш йўллари. и.ф.д. илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати.-Тошкент. Жумаев Н.Х. (2007). Ўзбекистонда валюта муносабатларини тартибга солиш методологиясини такомиллаштириш/ Монография – Тошкент. Фан ва технология. Саттаров О.Б. ва бошқ. (2014). Инфляция: муаммо ва ечимлари/ Монография – Тошкент. Саттаров О.Б. (2018). Ўзбекистон Республикаси банк тизими барқарорлигини таъминлаш методологиясини такомиллаштириш/ и.ф.д. илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати.-Тошкент. Дусқобилов У.Ш. (2017). Ўзбекистонда монетар сиёсатни амалга ошириш механизмини такомиллаштириш йўллари. Монография. – Т.: «Navro'z» нашриёти, Курбондекова М.Т. (2023). ўзбекистонда пул-кредит сиёсати инструментларини такомиллаштиришнинг методологик асослари/ и.ф.д. илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати.-Тошкент.

transmission mexanizm valyuta kanali samaradorligining qiyosiy va empirik tahlil qilish;

inflyatsion targetlash sharoitida transmission mexanizm kanallari faoliyatini takomillashtirish bilan bog'liq bo'lgan muammolarni aniqlash va ularni hal qilishga qaratilgan ilmiy-uslubiy taklif va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish.

Tadqiqotning obykti sifatida O'zbekiston Respublikasi bank tizimi olingan.

Tadqiqotning predmeti monetar siyosati transmission mexanizmi kanallari faoliyati jarayonida yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada ilmiy abstraksiya, ekonometrik tahlil, qiyosiy va tarkibiy tahlil, iqtisodiy-statistik va ekspert baholash usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

valyuta kanali faoliyati samaradorligini oshirish maqsadida banklararo valyuta bozorida chet el valyutasini sotish va sotib olish bo'yicha operatsiyalarda valyuta kursi faqat bozor mexanizmlari asosida chet el valyutasiga bo'lgan talab va taklifdan kelib chiqqan holda belgilanishi taklif etilgan;

davlat qimmatli qog'ozlarining ikkilamchi bozorini yanada rivojlantirish orqali transmission mexanizm foiz kanali samaradorligini oshirish maqsadida auksion natijalarining hisob-kitoblarini T+2 standarti asosida amalga oshirish orqali investorlarga qo'shimcha qulayliklar yaratish taklif etilgan;

qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirishda davlat qimmatli qog'ozlarini kupon stavkali, nol kupon stavkali va inflyatsiya darajasiga bog'langan holda jismoniy shaxslar o'rtasida ham jaylashtirish orqali foiz kanalining samaradorligini oshirish asoslangan;

inflyatsion targetlash rejimida inflyatsiyaning maqsadli ko'rsatkichi bilan uning kutilmalari o'rtasidagi farqni qisqartirishda transmission mexanizm foiz kanalining samaradorligi yuqori ekanligi empirik asoslangan;

mamlakatimizda valyuta siyosatini erkinlashtirish natijasida ichki iqtisodiyotdagi inflyatsiya darajasini, hamda tashqi iqtisodiyotda savdo balansidagi tabranishlarning ta'sirini inobatga olgan holda milliy valyuta almashinuv kursining 2028 yilga qadar prognoz ssenariylari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

mexanizm kanallarini iqtisodiyotga ta'sir bosqichlarining, mexanizm kanallari samaradorligini qiyosiy va empirik tahlil qilishning metodologik asoslari takomillashtirilgan;

transmission mexanizmi bank kredit kanalini bank tizimi barqarorligigi, xususan ularning likvidliligi va kapitallashuv darajalari orqali samaradorligi yuqori ekanligi aniqlangan;

monetar siyosat transmission mexanizm foiz kanalini, bank kredit kanalini hamda valyuta kanallarini qiyosiy tahlil qilish natijasida ularning samaradorligini oshirish yo'nalishlari belgilab berilgan;

monetar siyosatdagi asosiy real foiz stavka hamda pul bozoridagi real foiz stavkalarining tijorat banklarining qisqa muddatli depozitlari va kreditlariga ta'sirining yuqori ekanligi aniqlangan;

monetar siyosat transmission mexanizm foiz kanalining antiinflyatsion siyosat yuritishda qulay kanal ekanligi ammo iqtisodiy o'sishni ta'minlashda sezilarli ekanligi aniqlangan.

Transmission mexanizm valyuta kanalining moliya bozoriga, hamda savdo balansiga ta'siri orqali ichki iqtisodiyotga ta'siri empirik tahlillar asosida aniqlangan;

tashqi faktorlarning, xususan jahon bozorida oltin va gaz narxlarining o'zgarish, mehnat migratsiyasi hisobiga mamlakatimizda transfer to'lovlarining musbat saldosini o'zgarishining monetar siyosat transmission mexanizmiga va ichki iqtisodiyotga ta'siri empirik baholangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Qo'llanilayotgan yondashuv va metodlarning maqsadga muvofiqligi, ma'lumotlarni rasmiy manbalardan, xususan, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat Statistika qo'mitasidan olinganligi, monetar siyosatga doir me'yoriy xujjatlar, mamlakatimiz va xorijiy iqtisodchi olimlarning ekspert baholari va ilmiy natijalaridan foydalanilganligi, shu bilan birga tegishli xulosa va takliflarning Oliy Majlis Senatining Byudjet va iqtisodiy islohotlar masalalari qo'mitasi, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari instituti hamda "O'zsanoatqurilishbank" aksiyadorlik tijorat banki tomonidan amaliyotga joriy qilinganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati ulardan monetar siyosat transmission mexanizmini takomillashtirishga qaratilgan maxsus ilmiy-tadqiqotlarni amalga oshirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalarni mamlakatimizda monetar siyosat transmission mexanizmi kanallarining iqtisodiyotga ta'sirini takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuini ishlab chiqishda foydalaniladi, shuningdek, 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida ko'rsatilgan vazifalarni bajarishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqishda foydalanilishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Monetar siyosati transmission mexanizmini takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

valyuta kanali faoliyati samaradorligini oshirish maqsadida banklararo valyuta bozorida chet el valyutasini sotish va sotib olish bo'yicha operatsiyalarda valyuta kursi faqat bozor mexanizmlari asosida chet el valyutasiga bo'lgan talab va taklifdan kelib chiqqan holda belgilanishiga doir taklifi 2024 yil 20 sentyabrdagi "Kiberxavfsizlikni ta'minlash sohasidagi qonunchilik takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonun bilan "O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida"gi Qonunning 11- va 12-moddalariga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalarni ishlab chiqishda foydalanilgan (Oliy Majlis Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari institutining 2024 yil 24 oktyabrdagi 62-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, monetar indikatorlar va bozor faktorlarining valyuta kursiga ta'sirini oshirishga, xususan pul massasi hajmini bir

foziga o'sishi milliy valyuta almashinuv kursini 1,17 foizga pasaytirgan bo'lsa, mamlakatimiz export hajmining bir foizga oshishi esa ushbu kursni 0,1 foizga oshirishi Least Squares with Breaks modeli orqali aniqlandi va asoslab berildi;

davlat qimmatli qog'ozlarining ikkilamchi bozorini yanada rivojlantirish orqali transmission mexanizm foiz kanali samaradorligini oshirish maqsadida auksion natijalarining hisob-kitoblarini T+2 standarti asosida amalga oshirish orqali investorlarga qo'shimcha qulayliklar yaratishga doir taklifi O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 29 oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonun bilan "Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida"gi Qonunga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalarni ishlab chiqishda foydalanilgan (Oliy Majlis Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari institutining 2024 yil 24 oktyabrdagi 62-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, moliya bozorining instrumentlarini ko'paytirish va bank tizimidan tashqarida aholidagi bo'sh turgan pul mablag'larini moliya bozoriga jalb qilish, hamda transmission mexanizm foiz kanalining samaradorligini oshirishga erishildi.

qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirishda davlat qimmatli qog'ozlarini kupon stavkali, nol kupon stavkali va inflyatsiya darajasiga bog'langan holda jismoniy shaxslar o'rtasida ham joylashtirish orqali foiz kanalining samaradorligini oshirishga doir taklifi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 21-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasining davlat g'aznachilik majburiyatlari va obligatsiyalarini muomalaga chiqarishni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqidagi 82-sonli qarorini ishlab chiqishda foydalanilgan (Oliy Majlis Senatining Byudjet va iqtisodiy islohotlar masalalari qo'mitasining 2024 yil 23 oktyabrdagi 05/4370-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, moliya bozorining instrumentlarini ko'paytirish va bank tizimidan tashqarida aholidagi bo'sh turgan pul mablag'larini moliya bozoriga jalb qilish, hamda transmission mexanizm foiz kanalining samaradorligini oshirishga xizmat qildi.

inflyatsion targetlash rejimida inflyatsiyaning maqsadli ko'rsatkichi bilan uning kutilmalari o'rtasidagi farqni qisqartirishda transmission mexanizm foiz kanalining samaradorligi yuqori ekanligiga doir taklifi (Oliy Majlis Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari institutining 2024 yil 24 oktyabrdagi 62-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, transmission mexanizm foiz kanalidan samarali foydalanish yo'lida indikativ foiz stavkaning bir foizga oshishi uch chorak kechikish bilan iqtisodiyotdagi inflyatsiya darajasini 0,63 foizga pasaytirish, hamda pul massasi hajmining bir foizga o'sishi mamlakatda real ishlab chiqarish hajmini ikki choraklik farq bilan 0,81 foizga oshirishi aniqlandi.

mamlakatimizda valyuta siyosatini erkinlashtirish natijasida ichki iqtisodiyotdagi inflyatsiya darajasini, hamda tashqi iqtisodiyotda savdo balansidagi tabranishlarning ta'sirini inobatga olgan holda milliy valyuta almashinuv kursining 2028 yilga qadar prognoz ssenariylariga doir taklifi "O'zsanoatqurilishbank" ATB tomonidan qabul qilingan ("O'zsanoatqurilishbank" ATBning 2024 yil 25 oktyabrdagi 04/6075-son ma'lumotnomasi). Natijada, optimal ssenariyga ko'ra, milliy valyuta almashinuv kursi 2025-2027 yillarda 19,5 foizga devalvatsiya bo'lib,

2028 yil boshida AQSh dollariga nisbatan almashinuv kurdi 14995,6 so‘mgacha ko‘tarilishi prognoz qilindi.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 28 ta ilmiy ish, shu jumladan: 1 monografiya, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi ro‘yxatiga kiritilgan jurnallarda 17 ta maqola, shu jumladan xorijiy mamlakatlarda 3 ta maqola, va 14 ta maqola respublika jurnallarda nashr etilgan, 10 ta tezis, jumladan 4 ta respublika va 6 ta xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokamadan o‘tqazilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, oltita bob, o‘n sakkizta paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalar iborat. Dissertatsiyaning hajmi 288 betdan iborat.

DISSERTASIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsadi, vazifalari hamda obyekt va predmeti, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari, tadqiqot natijalarining ishonchliligi va joriy etilishi, dissertatsiya tuzilishi va hajmi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Monetar siyosati transmission mexanizmining ilmiy-nazariy asoslari**» deb nomlangan birinchi bobida monetar siyosati transmission mexanizmining ilmiy-nazariy asoslari, transmission mexanizmi kanallari foaliyati, xususan foiz kanali, bank kredit kanali, valyuta kanali faoliyatlari borasida ilmiy-nazariy qarashlar tadqiq etilgan va ilmiy xulosalar ishlab chiqilgan.

Markaziy bank pul-kredit siyosatining transmission mexanizmi o‘ziga xos kanallarga ega bo‘lib, ular orqali pul-kredit siyosatining iqtisodiyotga ko‘rsatilayotgan ta‘sir impulslari uzatiladi. Transmission mexanizm kanallari monetar qarorlar to‘g‘risidagi e‘lonlardan tortib, pul-kredit siyosati va iqtisodiyot real sektorining bir biriga bo‘lgan ayrim o‘zaro ta‘sir mexanizmlarini ifodalaydi. Natijada pul-kredit siyosati sohasida amalga oshirilgan tadbirlardan keyin yuzaga kelgan real holatni aks etuvchi o‘zgaruvchan ko‘rsatkichlarga monetar siyosatni olib boruvchilarning teskari munosabati ham hisobga olinadi. Transmission kanallarining uzatuvchi mexanizmlari bir-biri bilan bog‘liq makroiqtisodiy o‘zgaruvchan ko‘rsatkichlardan iborat bo‘lib, ular pul-kredit siyosatida sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarni uzatish uchun mo‘ljallangan. Shuningdek, ular milliy iqtisodiyotning o‘ziga xosligiga, moliyaviy tizimga va pul-kredit orqali muvofiqlashtirishni amalga oshirish metodlariga bog‘liqdir.

Dunyoning aksariyat mamlakatlarida Markaziy bank pul-kredit siyosati iqtisodiy rivojlanishni, narx barqarorligini hamda milliy valyuta kursi barqarorligini ta‘minlashda asosiy o‘rin tutadi. Markaziy bank pul-kredit siyosati bu kabi maqsadli makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarga erishishda bir nechta bosqichni bosib o‘tadi. Ushbu bosqichni zamonaviy til bilan aytganda transmission mexanizm deb atashadi.

Dastlab monetar siyosatida “transmission mexanizm” tushunchasi John Maynard Keynes tomonidan kiritilgan. J.Keynes pul taklifi orqali iqtisodiy jarayonlarga ta‘sir ko‘rsatuvchi o‘zgaruvchan ko‘rsatkichlar tizimini “transmission

mexanizm” deb atagan. Uning fikricha, pul massasi hajmining o‘zgarishi foiz stavkasining o‘zgarishiga olib keladi. Buning natijasida kredit bozori va qimmatli qog‘ozlar bozori orqali tadbirkorlarning investitsion xarajatlariga ta’sir qiladi. Oqibatda yalpi ishlab chiqarish hajmining o‘zgarishiga sabab bo‘ladi. Shundan keyingina tovarlar bozoridagi o‘zgarish pul bozoridagi o‘zgarishga ta’sir qiladi degan fikrga kelgan.

Keyingi tahlillar shuni ko‘rsatdiki J.Keyns transmission mexanizmi nafaqat korxonalarining investitsion xarajatlari orqali yalpi ishlab chiqarishga balki, iste’molchilarning xarajatlari va jamg‘armalari borasida qarorlari orqali ham ta’sir etadi. Monetar siyosatning transmission mexanizmni tahlil qilganda pul massasining boshqa aktivlarga ta’sir qilishi M.Friedman tomonidan taklif qilingan. Shuningdek, Xorijiy adabiyotlarda mazkur mavzuga bag‘ishlangan talay ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, J.Tobin, J.M.Fleming, R.A.Mundell, R.Dornbusch, A.Ando, F.Modigliani, J.E.Stiglitz, B.Bernanke, M.Gertler, A.S.Blinder, Frederic S. Mishkin, V.Ramey, A.K.Kashyap, J.C.Stein, J.B.Taylor, Peter N. Ireland, shu jumladan rossiyalik iqtisodchi olimlardan S.R.Moiseev, D.I.Kondratov, Ye.A. Leonteva, P.V.Trunin, S.A.Andryushin, S.M.Drobishevskiy, I.S. Ivanchenko, I.L.Kaviskaya va boshqa ko‘plab olimlar ishlarida ushbu muammo atroflicha ko‘rib chiqilgan.

Mamlakatimizdagi iqtisodiy olimlar tomonidan pul-kredit siyosatining ayrim yo‘nalishlari borasida ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, N.Jumayev Markaziy bank valyuta siyosati ustida ilmiy izlanish olib borgan bo‘lsa, Sh.Abdullaeva tijorat banklarida kreditlash holati va kredit riskiga, T.Boboqulov milliy valyutamiz barqarorligiga, O.Namozov monetar siyosatga umumiy qaragan bo‘lsa, F.Dodiyev o‘tish iqtisodiyotida pul-kredit siyosati transmission mexanizmi kanallari hususida izlanish olib borgan. Jumladan, F.Dodiyev taxriri ostida chop etilgan ilmiy loyixa ishida transmission mexanizm borasida mulohaza yuritir ekan uning mohiyatini quyidagicha qaragan. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining pul-kredit siyosati transmission mexanizmiga qarashlari bo‘yicha “Pul-kredit siyosatining transmission mexanizmi o‘zida Markaziy bank foiz stavkalari o‘zgarishining iqtisodiy faollikka va pirovardida inflyatsiya darajasiga ta’sir o‘tkazish jarayonini aks ettiradi.” deb keltirilgan. Mamlakatimiz olimlari transmission mexanizm borasida yaxlit tahlillar olib bormagan bo‘lib, balki pul-kredit siyosati holatini tahlil qilgan.

Transmission mexanizm xususida keltirilgan olimlar fikrlari, hamda markaziy bank ta’riflari bir-biriga juda yaqin bo‘lib, o‘zaro munozarali xolatni yuzaga keltirmaydi. Olimlarning transmission mexanizmga qarashlaridagi o‘xshashlik shundan iboratki, ya’ni mexanizm natijasi o‘laroq asosan yalpi ishlab chiqarish, hamda inflyatsiyaga ta’siri muhim deb olingan. Ammo ta’kidlash joizki, Markaziy bank pul-kredit siyosati nafaqat yalpi ishlab chiqarish va inflyatsiyaga balki, mamlakatdagi ishsizlik, hamda to‘lov balansiga ta’siri ham ahamiyatga ega bo‘lib, asosan biz kabi rivojlanayotgan davlatlarga xosdir. Shu munosabat bilan bizning fikrimizcha keng ma’noda markaziy bank pul-kredit siyosati transmission mexanizmi – bu monetar siyosat instrumentlaridagi o‘zgarishlar natija-sida mexanizm kanallari orqali korxonalarining investitsion, davlat, aholining iste’mol

xarajatlariga, shuningdek sof eksportga ta'sir etgan holda yalpi ishlab chiqarish, inflyatsiya, ishsizlik hamda to'lov balanslarida o'zgarishlarga olib keluvchi iqtisodiy jarayondir.

Garchi Markaziy bankning pul massasini o'zgartirish orqali nominal foiz stavkaga ta'siri olimlar tomonidan baxsdan xoli bo'lsada, ammo markaziy bank tomonidan uy xo'jaliklari va firmalarning xarajatlariga qay yo'sinda ta'sir ko'rsatishi borasida turli qarashlar mavjud. Ushbu qarashlarni Koliforniya Universiteti olimi V. Ramey shartli ravishda ikki guruhga ya'ni "pul nuqtai nazardan qarash" hamda "kredit nuqtai nazardan qarashlar"ga ajratgan. Shuningdek, ushbu qarashlarga qo'shimcha ravishda iqtisodchi olim S. Moiseyev bunga yana "taklif tomonidan qarash" yondoshuvlarni keltirgan.

Dissertatsiya ishining ikkinchi bobi "**Transmission mexanizm kanallari samaradorligini baholashning metodologik asoslari**" deb nomlangan bo'lib, unda transmission mexanizmi metodologiyasi uch qismga, ya'ni mexanizm kanallarini iqtisodiyotga ta'sirining metodologik asoslari, mexanizm kanallari samaradorligini tahlil qilishning metodologik asoslari, hamda monetar siyosat transmission mexanizmi kanallari faoliyatini empirik tahlil qilishning metodologik asoslari tadqiq etilgan va ilmiy xulosalar ishlab chiqilgan.

Monetar siyosat transmission mexanizm kanallarini iqtisodiyotga ta'sirining metodologik asoslari sifatida quyidagilarni keltirsak bo'ladi.

Iqtisodchi olimlar transmission mexanizmning foiz kanaliga shubha qilmasada, ushbu kanalning iqtisodiyotga ta'siri davrini o'rganish bo'yicha turli matematik modellar yordamida izlanish olib borishgan.

Foiz kanalining ishlashi juda oddiy, ya'ni narx darajasini o'zgarimas deb qaraganimizda (qisqa muddatda foiz stavkasi o'zgarishi narx darajasiga ta'sir qilmaydi) markaziy bank tomonidan nominal foiz stavkasining tushurilishi real foiz stavkalarining ham tushushiga olib keladi. Bu korxonalar tomonidan moliyaviy resurslarni jalb qilish xarajatlarining kamayishiga va yalpi talabning oshishiga sabab bo'ladi. Yalpi talabning oshishi natijasida yalpi ishlab chiqarish ham oshashdi. Yoki aksincha xolat.

Monetar siyosat transmission mexanizmining iqtisodiyotga ta'sirini yanada yaqqolroq izohlaydigan bo'lsak, bunda pul massasining ortishi kutilayotgan narx darajasi (P^e) va inflyatsiyaning (π^e) oshishiga sabab bo'ladi. Bu real foiz stavkaning tushishiga olib kelib ($r \downarrow = i - \pi^e$), korxonalarining investitsion xarajatlarini va yalpi ishlab chiqarishning oshishiga ta'sir qiladi.

$$M \uparrow \Rightarrow P^e \uparrow \Rightarrow \pi^e \uparrow \Rightarrow r \downarrow \Rightarrow I \uparrow \Rightarrow Y \uparrow$$

Bizning fikrimizcha foiz kanali orqali iqtisodiyotga quyidagi usullar orqali ta'sir etadi.

a) Korxonalar investitsion xarajatlariga ta'siri;

$$i_{MB} \downarrow \Rightarrow i_{real} \downarrow \Rightarrow I \uparrow \Rightarrow Y \uparrow$$

b) Davlat xarajatlariga ta'siri;

$$i_{MB} \downarrow \Rightarrow TB \text{ korr. sch.} \uparrow \Rightarrow QQ \text{ talab} \uparrow \Rightarrow P_{QQ} \uparrow \Rightarrow i_{QQ} \downarrow \\ \Rightarrow \text{Davlat xarajatlari } (G) \uparrow \Rightarrow Y \uparrow$$

c) Aholi iste'moliga ta'siri;

$i_{MB} \downarrow \Rightarrow TB \text{ korr. sch.} \uparrow \Rightarrow i_{kredit} \downarrow \Rightarrow Aholiga \text{ kreditlar ajratish} \uparrow$
 $\Rightarrow Uzoq \text{ muddatli iste'mol tovarlar xaridi (C)} \uparrow \Rightarrow Y \uparrow$

d) eksport hajmiga ta'siri;

$i_{MB} \downarrow \Rightarrow M_2 \uparrow \Rightarrow E \downarrow \Rightarrow Export \uparrow \Rightarrow Y \uparrow$

e) import hajmiga ta'siri

$i_{MB} \downarrow \Rightarrow G \uparrow; C \uparrow; I \uparrow \Rightarrow Milliy \text{ daromad} \uparrow \Rightarrow Import \uparrow \Rightarrow Y \downarrow$

Foiz stavka kanalining mamlakat eksporti va importiga ta'sir qilishi va buning natijasida savdo balansini ijobiy yoki salbiy tomonga o'zgarishi Marshall-Lerner shartining (Marshall – Lerner condition) bajarilish holatiga bog'liq.

Bu yerda:

i_{MB} – Markaziy bank nominal foiz stavkasi; i_{real} – real bozor foiz stavkalari; I – korxonalar investitsion xarajatlari; $TB \text{ korr. sch.}$ – tijorat banklarning Markaziy bankdagi vakillik hisob raqamidagi mablag'lar; P_{QQ} – qimmatli qog'ozlar bozor narxi, i_{QQ} – qimmatli qog'ozlar foizi; E – almashinuv kursi.

B. Bernanke va M. Gertler bank kredit kanalini ikkita sub kanallarga bo'lishgan. Bular “bank kreditlash kanali” (bank lending channel) (“tor doirada bank kredit kanali” (narrow credit channel) va “kapital jalb qilish xarajati kanali” (cost – of – capital channel) ham deb atashadi), hamda “balans kanali” (balance sheet channel), (“keng doiradagi kredit kanali” (broad credit channel), yoki “moliyaviy akselerator kanali” (financial accelerator channel) ham deb yuritishadi) hisoblanadi.

Bank kreditlash kanalini quyidagicha tasvirlashimiz mumkin:

$M \downarrow \Rightarrow Bank \text{ resursi} \downarrow \Rightarrow Bank \text{ krediti} \downarrow \Rightarrow I \downarrow \Rightarrow Y \downarrow$

Frederic S. Mishkin fikricha monetar siyosat qarorlari korxonalar balanslari holatiga bir nechta yo'llar bilan ta'sir qiladi⁶. Birinchi yo'lda, arzon pul-kredit siyosati korxonaga qimmatli qog'ozlari bozor narxini oshishiga olib keladi. Bu vaziyatda, bankning korxonaga beradigan krediti borasida salbiy tanlovi ehtimoli va korxonada ma'naviy risk kamayishi oqibatida, korxonalarning investitsion xarajatlari oshadi va provardida YaIM oshishiga olib keladi. Buni quyidagi sxemada ko'rishimiz mumkin.

$M \uparrow \Rightarrow P \uparrow \Rightarrow Salbiy \text{ tanlov ehtimoli} \downarrow, Ma'naviy \text{ risk} \downarrow \Rightarrow Kredit \uparrow \Rightarrow I \uparrow \Rightarrow Y \uparrow$

Bu yerda: M – pul massasi, P – qimmatli qog'ozlarning bozor narxi, I – korxonalarning investitsion xarajatlari, Y – YaIM.

Markaziy bank transmission mexanizmi valyuta kanalining maqroiqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'siriga to'xtaladigan bo'lsak, bunda markaziy bank tomonidan almashinuv kursi devalvasiyasini amalga oshirilishi sof eksportga ($NX \uparrow$) ta'sir etgan holda yalpi ishlab chiqarishga va mamlakatdagi inflyatsiya darajasini o'zgartiradi.

$Markaziy \text{ bank devalvasiyasi} \Rightarrow e \downarrow \Rightarrow NX \uparrow \Rightarrow Yalpi \text{ talab} \uparrow \Rightarrow Y \uparrow \text{ va } \pi \uparrow$

Monetar siyosat transmission mexanizm aktivlar bahosi kanalining iqtisodiyotga ta'sirining metodologik asoslari sifatida quyidagilarni keltirsak bo'ladi.

$M \uparrow \Rightarrow P_e \uparrow \Rightarrow q \uparrow \Rightarrow I \uparrow \Rightarrow Y \uparrow$

Boylik kanalining iqtisodiyotga ta'sir sxemasi quyidagicha bo'ladi:

⁶ Frederic S. Mishkin (2011). The Economics of Money, Banking, and Financial Markets// 6th Edition, Addison Wesley Publishing Company. pp. 638-666.

$$M \downarrow \Rightarrow i_{MB} \uparrow \Rightarrow i_{QQ} \uparrow \Rightarrow P_e \downarrow \Rightarrow \text{Aholi boyligi} \downarrow \Rightarrow \text{Iste'mol} \downarrow \Rightarrow Y \downarrow$$

Transmission mexanizm kanallari samaradorligini tahlil qilishning metodologik asoslari sifatida quyidagilarni keltirsak bo‘ladi.

Transmission mexanizm kanallari samaradorligini tahlil qilish metodologiyasi

Foiz kanali

1-bosqich

- Markaziy bankda aniq bir indikativ foiz stavkaning bo‘lishi;
- Davlat qimmatli qog‘ozlar bozorining rivojlanganlik darajasi;
- Markaziy bankning oldida bitta aniq maqsad (target) bo‘lishi;
- Tijorat banklari balans passivida markaziy bankdan olgan kreditlar salmog‘i.

2- bosqich

- Aholi iste‘mol darajasining foiz stavkaga ta‘sirchanligi;
- Qisqa muddatda narx darajasi va ish xaqining keskin tebranmasligi;
- Foiz stavkaga ta‘sirchan mahsulotlarning YaIM tarkibidagi ulushi.

Valyuta kanali

2- bosqich

- mamlakatning eksport salohiyati;
- mahalliy bozorlarda import tovarlarining ulushi;
- asosiy kapitalga kiritayotgan investitsiyalar tarkibida xorijiy investitsiyalar va kreditlar ulushi;
- bank tomonidan berilgan kreditlar tarkibida xorijiy valyutadagi kreditlarning ulushi;
- kredit tashkilotlaridagi yuridik va jismoniy shaxslarning chet el valyutasidagi depozitlarning umumiy depozitlardagi ulushi.

Bank kredit kanali

1- bosqich

- tijorat banklari aktivlarida kreditlarining ulushi;
- sekyuritizasiya bozorining rivojlanganligi;
- mamlakatda bank tizimining rivojlanganlik darajasi;
- bank kredit shartnomalarining xususiyatlari;
- xorijiy banklarning mamlakat bank tizimidagi ulushi;
- tijorat banklari likvidlilik hamda kapital yetarlilik darajalari.

2- bosqich

- xususiy sektorga ajratilgan kreditlarning katta ulushi kichik va o‘rta banklarga to‘g‘ri kelishi;
- bank kreditlaridan boshqa alternativ moliyalashtirish manbalarining iloji yo‘q bo‘lgan korxonalarining umumiy korxonalaridagi ulushi;
- bank kreditlarini olishda barcha korxonalar teng imkoniyat ega emasligi.

Monetar siyosat transmission mexanizmi kanallari faoliyatini empirik tahlil qilishning metodologik asoslari sifatida quyidagilarni keltiramiz.

Ekonometrik tahlil metodologiyasida ARIMA (avtoressiv integratsiyalashgan harakatlanuvchi o‘rtacha), VAR (vektor avtoressiya modeli), VECM (vektor xatosini tuzatish modeli) modellari keng qo‘llaniladi. Ushbu

modellar bilan bir qatorda BVAR (Bayesian vektor avtoregressiyasi) va SVAR (strukturaviy vektor avtoregressiyasi) modellari takomillashtirilmoqda, ular aniq qisqa muddatli prognozlarni taqdim eta oladi.

VAR modeli - bu bir qancha o'zgaruvchilar o'rtasidagi munosabatlarni ma'lum vaqt davomida o'zgartirish orqali aniqlash uchun ishlatiladigan model. VAR modeli bir nechta vaqt seriyalarining dinamikasini ifodalaydi, ushbu seriyaning joriy (joriy) qiymati oldingi davrlardagi vaqt seriyalarining qiymatlariga bog'liq (lag). VAR modeli ekonometrik tenglamalardan iborat bo'lib, ularning har biri avtoregressiya va oldingi taqsimot modeli (ADL). y^i , $i = 1, 2, \dots, k$ - i davrda vaqtlar qatorini anglatrsa, i vaqtlar qatorini o'ziga qamragan ADL modeli quyidagicha ko'rinishga ega bo'ladi.

$$y_t^i = a_0^i + \sum_{j=1}^k a_{1j}^i \cdot y_{t-1}^j + \sum_{j=1}^k a_{2j}^i \cdot y_{t-2}^j + \dots + \sum_{j=1}^k a_{pj}^i \cdot y_{t-p}^j + \varepsilon_t^i$$

Biroq modelni vektor-matritsa shaklida yozish qulayroqdir. Buning uchun $y_t = (y_t^1, y_t^2, \dots, y_t^k)$ vektor vaqt qatorini olamiz. Bunday holda, yuqoridagi tenglamani har bir vaqt qatori uchun quyidagi yagona tenglama yordamida bir butun sifatida ifodalashimiz mumkin.

$$y_t = a_0 + A_1 y_{t-1} + A_2 y_{t-2} + \dots + A_p y_{t-p} + \varepsilon_t = a_0 + \sum_{m=1}^p A_m y_{t-m} + \varepsilon_t$$

Bu yerda $A_m - a_{mj}^i$ elementlaridan tashkil topgan matritsa. Bu tenglama r qatorli vektorli avtoregressiv modeldir.

Ushbu vektor avtoregressiya tenglamasining matritsa ko'rinishi:

$$\begin{pmatrix} y_{1,t} \\ y_{2,t} \\ \vdots \\ y_{k,t} \end{pmatrix} = \begin{pmatrix} a_{0,1} \\ a_{0,2} \\ \vdots \\ a_{0,k} \end{pmatrix} + \begin{pmatrix} a_{1,1}^1 & a_{1,2}^1 & \dots & \dots & a_{1,k}^1 \\ a_{2,1}^1 & a_{2,2}^1 & \dots & \dots & a_{2,k}^1 \\ \vdots & \vdots & \vdots & \vdots & \vdots \\ a_{k,1}^1 & a_{k,2}^1 & \dots & \dots & a_{k,k}^1 \end{pmatrix} \begin{pmatrix} y_{1,t-1} \\ y_{2,t-1} \\ \vdots \\ y_{k,t-1} \end{pmatrix} + \dots \\ + \begin{pmatrix} a_{1,1}^p & a_{1,2}^p & \dots & \dots & a_{1,k}^p \\ a_{2,1}^p & a_{2,2}^p & \dots & \dots & a_{2,k}^p \\ \vdots & \vdots & \vdots & \vdots & \vdots \\ a_{k,1}^p & a_{k,2}^p & \dots & \dots & a_{k,k}^p \end{pmatrix} \begin{pmatrix} y_{1,t-p} \\ y_{2,t-p} \\ \vdots \\ y_{k,t-p} \end{pmatrix} + \begin{pmatrix} \varepsilon_{1,t} \\ \varepsilon_{2,t} \\ \vdots \\ \varepsilon_{k,t} \end{pmatrix}$$

Vektorli avtoregressiya modelida faqat oldingi vaqt qatoridagi o'zgarishlarning ta'siri yuqoridagi matritsa shaklida ifodalanadi.


Struktural VAR (SVAR) modeli an'anaviy VAR (Vector Autoregression) modeliga nisbatan bir nechta ustunliklarga ega. Ushbu ustunliklar asosan iqtisodiy o'zgaruvchilar o'rtasidagi bog'liqlikning aniqroq va asosliroq tahlilini ta'minlash bilan bog'liq.

Dissertatsiya ishining **“Transmission mexanizm foiz kanali samaradorligini qiyosiy va empirik baholash”** deb nomlangan uchinchi bobida transmission mexanizm fozi kanalining qiyosiy tahlili, foiz kanalini bozor foiz stavkalariga

ta'sirining ekonometrik tahlili, hamda foiz kanalini iqtisodiyotga ta'sirining ekonometrik tahlili kabi jihatlariga tadqiq etilgan.

Transmission mexanizm foiz kanali Markaziy bank arsenalidagi eng kuchli kanallardan biridir. Markaziy bank foiz stavkasini o'zgartirish orqali dastlab qisqa muddatli bozor foiz stavkalariga ta'sir etadi. Qisqa muddatli bozor foiz stavkalari o'zgarishiga qarab uzoq muddatli foizlar moslashadi.

Markaziy bankda indikativ foiz stavkaning bo'lishi asosan pul bozorida foiz stavka bilan qimmatli qog'ozlar foiz stavkalariga ta'sirida seziladi. Markaziy bank o'zining foiz stavkasi orqali yuqoridagi asosiy ikki bozorga ta'sir ko'rsatadi.




1-rasm. Markaziy bank asosiy foiz stavkasi bilan pul bozori foizi va DQQ foizlari o'rtasidagi bog'liqlik⁷

Tahlil natijalariga ko'ra, Markaziy bank asosiy foiz stavkasi bilan pul bozorida foiz stavka o'rtasidagi korrelyatsiya $\rho = 0,60$ ga tengligi va bu bog'liqlik kuchli ekanligi aniqlandi. Shu bilan birga Markaziy bank asosiy foiz stavkasi va pul bozorida foiz stavkalarining trendi ham bir-biriga juda yaqin bo'lmoqda.

Ammo Markaziy bankning asosiy foiz stavkasi bilan davlat qimmatli qog'ozlari foizlari o'rtasidagi korrelyatsiya $\rho = -0,14$ ga tengligi va bu bilan ular o'rtasida bog'liqlik mavjud emasligi aniqlandi. Markaziy bank asosiy foiz stavkasi bilan tijorat banklari kredit foiz stavkasi o'rtasida korrelyatsiya $\rho = 0,45$ ga tengligi aniqlandi. Ammo Markaziy bank asosiy foiz stavkasi bilan milliy valyutada depozit foizlari bilan korrelyatsiyasi $\rho = -0,01$ ga tengligi ular o'rtasida bog'liqlik yo'qligidan dalolat beradi.


Tahlil natijalariga ko'ra, markaziy hukumatning tijorat banklari oldidagi majburiyatlari oshib bormoqda. Xususan, 2019 yilda markaziy hukumatning tijorat banklari oldidagi majburiyati 6609,4 mlrd.so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2024 yil boshida bu ko'rsatkich 27252,0 mlrd.so'mni tashkili qilgan.

⁷ O'zbekiston Respublikasi Markaziy bank rasmiy sayti www.cbu.uz ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi



2-rasm. Tijorat banklarining markaziy hukumatga va Markaziy bankka bo'lgan talablarining 1-yanvar holatiga qoldig'i. (mlrd.so'mda)⁸

Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, 2019-yilga qadar qimmatli qog'ozlar bozori orqali transmission mexanizm foiz kanalining iqtisodiyotga ta'siri yetarli bo'lmagan. Ammo 2019-yildan davlat qimmatli qog'ozlari bozorining yo'lga qo'yilishi va uning kengashib borishi, 2020-yilda Markaziy bank obligasiyalarining qimmatli qog'ozlar bozorida ko'lamining oshib borishi transmission mexanizm foiz kanalining iqtisodiyotga ta'sirini kuchaytirmoqda.




3-rasm. Markaziy bankning bank tizimiga bo'lgan talabi⁹

Tahlil natijalaridan ko'rishimiz mumkinki, bank tizimi passivi 2017-yil 1-yanvar holatiga 84,1 trln.so'mni tashkil qilgan bo'lsa, 2024-yil 1-yanvar holatiga sakkich barobarga yaqin oshgan holda 652,2 trln.so'mga tashkil qilgan. Shu bilan birga bank tizimi majburiyatlari ham keskin oshgan. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, bank tizimi majburiyatlari 2017-yil 1-yanvar holatiga 75,1 trln.so'mni tashkil qilgan

⁸ O'zbekiston Respublikasi Markaziy bank rasmiy sayti www.cbu.uz ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

⁹ O'zbekiston Respublikasi Markaziy bank rasmiy sayti www.cbu.uz ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

bo'lsa, 2024-yil 1-yanvar holatiga sakkich barobarga yaqin oshgan holda 555,1 trln.so'mga tashkil qilgan.



4-rasm. Jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlari holati¹⁰

Tahlil natijalariga ko'ra, jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlarning YaIMga nisbati ham sezilarli oshgan. Xususan, 2016 yilda jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlarning YaIMga nisbati 3,7 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 2023 yilda bu ko'rsatkich 12,5 foizni tashkil qilmoqda.

Markaziy bank transmission mexanizmi foiz kanalining iqtisodiyotga ta'sirining kuchli bo'lishi qisqa muddatda narx darajasi va aholining ish xaqi keskin tebranmasligiga juda bog'liqdir. Agar narx darajasi va aholi ish xaqi keskin tebransa, foiz kanali orqali tijorat banklari kreditlari foiziga ta'sir va provardida iqtisodiyotdagi yalpi talabga ta'siri sust bo'ladi.

1-jadval

Aholi daromadlari va inflyatsiya darajasining tasviriy statistikasi¹¹

	Aholining nominal daromadi	Aholining real daromadi	Inflyatsiya
Mean	13.24226	5.985995	10.05071
Median	9.593344	5.762929	9.250000
Maximum	33.09274	9.368384	18.80000
Minimum	2.819023	2.819023	5.600000
Std. Dev.	9.849711	2.113258	3.894632
Observations	14	14	14

2016-2024-yillarda esa iqtisodiy islohotlar, xususan valyuta siyosatining erkinlashtirilishi, naqd pul muammosining hal etilishi natijasida inflyatsiya darajasi keskin o'zgardi.

Aholi daromadlari va inflyatsiya darajasining tasviriy statistikasidan ko'rishimiz mumkinki, aholi nominal daromadining o'rtacha ko'rsatkichi 2010-2023 yillar oralig'ida 13,24 mln.so'mni tashkil etgan bo'lsa, uning tebranishi 2,81 mln.so'mdan 33,09 mln.so'mgacha bo'lgan. Shuningdek, aholi nominal daromadlarining o'rtachadan chetlashish darajasi 9,85 mln.so'mni tashkil qilgan.

¹⁰ O'zbekiston Respublikasi Markaziy bank rasmiy sayti www.cbu.uz ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

¹¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzridagi statistika qo'mitasining rasmiy ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

Quyida, transmission mexanizm foiz kanalining bozor foiz stavkalariga ta'sirini empirik tahlil qilamiz. Bunda, tijorat banklarida jismoniy shaxslardan jalb qilgan qisqa muddatli depozitning real foiz stavkasi ($STDR\ of\ Ind_t$), jismoniy shaxslarga ajratilgan qisqa muddatli kreditlarning real foiz stavkasi ($STLR\ of\ Ind_t$), yuridik shaxslardan jalb qilgan qisqa muddatli depozitning real foiz stavkasiga ($STDR\ of\ LegEnt_t$) va yuridik shaxslarga ajratilgan qisqa muddatli kreditlarning real foiz stavkalariga ($STLR\ of\ LegEnt_t$) endogen omillarning, ya'ni Markaziy bank real asosiy foiz stavkasi (INR_t) va pul bozorida real foizining (MMR_t) ta'sirlarini tahlil qilamiz. Tanlangan ko'rsatkichlar 2019M01-2024M06 davrlarga to'g'ri keladi.

2-jadval

Foiz kanalining moliya bozoriga ta'siri bo'yicha SVAR modeli natijasi.

Vector Autoregression Estimates (with restrictions)

	<i>STDR of Ind</i>	<i>STDR of LegEnt</i>	<i>STLR of Ind</i>	<i>STLR of LegEnt</i>
INR (-1)	0.328630 (0.13702) [2.39833]	0.143789 (0.22355) [0.64320]	0.568988 (0.18266) [3.11499]	0.586190 (0.16923) [3.46389]
INR (-2)	-0.022812 (0.15040) [-0.15167]	0.061027 (0.24537) [0.24871]	0.540507 (0.20049) [2.69592]	0.085645 (0.18575) [0.46109]
INR (-3)	-0.045447 (0.13034) [-0.34867]	0.234860 (0.21265) [1.10443]	0.152993 (0.17375) [0.88051]	0.110940 (0.16098) [0.68917]
MMR (-1)	0.358144 (0.07242) [4.94567]	0.154110 (0.11814) [1.30441]	0.099358 (0.09653) [1.02925]	0.246607 (0.08944) [2.75738]
MMR (-2)	0.204241 (0.08721) [2.34182]	0.035419 (0.14229) [0.24892]	0.210160 (0.11626) [1.80765]	0.286753 (0.10771) [2.66221]
MMR (-3)	0.152498 (0.07191) [2.12072]	0.051736 (0.11732) [0.44099]	0.109757 (0.09586) [1.14499]	0.015625 (0.08881) [0.17594]

Model natijasidan ko'rishimiz mumkinki, transmission mexanizm foiz kanalining moliya bozoriga ta'siri yuqori bo'lgan.

Ushbu tadqiqotimizda monetar siyosat transmission mexanizmi foiz kanalining maroiqtisodiy ko'rsatkichlarga, xususan yalpi ichki mahsulotga va inflyatsiya darajasiga ta'sirini tahlil qilamiz. Tahlilimizda bog'liq ko'rsatkich sifatida yalpi ichki mahsulot o'sishi ($LnGDP_t$), iqtisodiyotdagi inflyatsiya darajasining o'zgarishi ($LnCPI_t$), qisqa muddatli kreditlar foizining o'zgarishi ($LnSTLR_t$), hamda uzoq muddatli kreditlar foiz stavkasining o'zgarishi ($LnLTLR_t$) kabi ko'rsatkichlar olingan bo'lsa, mustaqil o'zgaruvchilar sifatida Markaziy bank asosiy foiz stavkasi o'zgarish ($LnINR_t$) va muomaladagi pul massasining o'zgarishi

($LnM2_t$) olingan. Ko'rsatkichlar 2017q1 davrga nisbatan real qiymatga o'tkazilgan, hamda tahlil davri 2003q1-2024q2 oraliqni o'z ichiga olgan.

3-jadval

Transmission mexanizm foiz kanalining iqtisodiyotga ta'siri borasida SVAR modeli natijasi.


	$LnSTLR_t$	$LnLTLR_t$	$LnCPI_t$	$LnGDP_t$
$LnINR_t$ (-1)	0.994155 (0.14531) [6.84183]	0.457437 (0.19126) [2.39168]	-1.325805 (0.13706) [-9.67331]	0.282880 (0.10154) [2.78583]
$LnINR_t$ (-2)	0.767459 (0.22618) [3.39311]	0.106239 (0.29772) [0.35684]	-0.982307 (0.21334) [-4.60434]	0.187724 (0.15806) [1.18768]
$LnINR_t$ (-3)	0.292731 (0.20055) [1.45964]	-0.286302 (0.26398) [-1.08456]	-0.632266 (0.18917) [-3.34235]	-0.043911 (0.14015) [-0.31332]
$LnM2_t$ (-1)	0.231708 (0.15582) [1.48699]	0.037026 (0.20511) [0.18052]	-0.272833 (0.14698) [-1.85626]	-1.670551 (0.10889) [-15.3413]
$LnM2_t$ (-2)	-0.309784 (0.22961) [-1.34918]	-0.150332 (0.30223) [-0.49741]	0.409257 (0.21658) [1.88966]	0.811678 (0.16046) [5.05858]
$LnM2_t$ (-3)	0.094092 (0.08279) [1.13653]	0.109125 (0.10897) [1.00140]	-0.196519 (0.07809) [-2.51658]	-0.126892 (0.05785) [-2.19330]

Model natijasidan ko'rishimiz mumkinki, Markaziy bank foiz kanalining iqtisodiyotga ta'siri, xususan inflyatsiya darajasini pasaytirishga ta'siri yuqori bo'lmoqda. Ammo foiz kanalining yalpi ishlab chiqarishga ta'siri sezilarsiz bo'lmagan.

Dissertatsiya ishining **“Transmission mexanizm bank kredit kanali faoliyatining amaldagi holati tahlili”** deb nomlangan to'rtinchi bobida transmission mexanizm bank kredit kanalining qiyosiy tahlili, bank tizimi barqarorligining bank kredit kanali samaradorligiga ta'siri, hamda transmission mexanizm bank kredit kanalining ekonometrik tahlili kabi jihatlarga tadqiq etilgan.


Foiz stavka kanali samarali faoliyat yuritishi uchun moliya bozori yuqori darajada rivojlangan va raqobatga ega bo'lishi kerak. Shuningdek, moliya bozori shunday samarali ishlashi kerakki bunda monetar siyosatdagi foiz stavka o'zgarishi real iqtisodiyot va yalpi ichki mahsulotga ta'sir etishi sezilarli bo'lishi lozim. Ammo moliya bozori ayrim davlatlarda sust taraqqiy etgan bo'lib, bunda foiz stavka o'zgarishining real iqtisodiyotga ta'siri sezilarsiz bo'ladi.

Bank kreditlari iqtisodiyotni rivojlantiruvchi asosiy elementlardan biri ekanligi bilan bir vaqtda ushbu bank kreditlarining qancha qismi real sektorga ajratilganligi ham muhimdir.



5-rasm. Mulkchilik shakliga ko‘ra tijorat banklarida kreditlarning aktivlardagi ulushi¹² (1-yanvar holatiga)

Rasmdagi ma’lumotlardan ko‘rishimiz mumkinki, kapitalida davlat ulushi mavjud banklarda aktivlarning asosiy qismi kredit operatsiyalariga yo‘naltirilmoqda.




6-rasm. Kredit foizlarining o‘zgarish tendensiyalari.¹³

Banklar tomonidan yuridik shaxslarga ajratilayotgan kreditlar foizi ham yuqoriligicha qolmoqda. Xususan, yuridik shaxslarga ajratilayotgan qisqa muddatli kreditlar foizi 2019-yil boshida 22,2 foiz bo‘lgan bo‘lsa, 2020-yil boshiga kelib 25,0 foizgacha ko‘tarilgan. Bugungi kunga kelib esa bu foiz 23,4 foizni tashkil qilmoqda.

¹² O‘zbekiston respublikasi Markaziy bankining rasmiy sayti www.cbu.uz ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.


¹³ O‘zbekiston respublikasi Markaziy bankining rasmiy sayti www.cbu.uz ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

Transmission mexanizm bank kredit kanali samaradorligiga xususi sektorga ajratilgan kreditlarning katta ulushi kichik va o‘rta banklarga to‘g‘ri kelishi kabi omilni baholashdan muhim masalalardan biridir. Bunga sabab Markaziy bankning qattiq pul-kredit siyosatiga asosan kichik va o‘rta banklar ta’sirchan hisoblanishadi.



7-rasm. Mulkchilik shakliga ko‘ra banklar toifasi tomonidan ajratilgan kreditlar dinamikasi¹⁴ (trln.so‘mda, 1-yanvar holatiga)

Tahlil ma’lumotlaridan ko‘rishimiz mumkinki, iqtisodiyotga ajratilayotgan kreditlarning katta qismi kapitalida davlat ulushi mavjud banklar tomonidan ajratilmoqda. Bank tizimi rentabelligi va daromadlilik holati banklarning rivojlangan darajasini bildiruvchi asosiy ko‘rsatkichlardan hisoblanadi.



8-rasm. Bank tizimi rentabelligi va daromadlilik holati¹⁵

Yuqoridagi ma’lumotlardan xulosa qilishimiz mumkinki, bank daromadlilikini bildiruvchi ko‘rsatkichlar oxirgi sakkiz yilda sezilarsiz o‘zgargan. Shuningdek,

¹⁴ O‘zbekiston respublikasi Markaziy bankining rasmiy sayti www.cbu.uz ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

¹⁵ O‘zbekiston respublikasi Markaziy bankining rasmiy sayti www.cbu.uz ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

oxirgi sakkiz silda bank kreditlari foizi (chunki bank kreditlari banklarga asosiy foyda keltiruvchi operatsiyadir) ikki barobarga oshgan bo'lsada, ammo ulardagi rentabellik darajalari, kreditlar bo'yicha olingan sof foizli daromadlarining jami kredit qo'yimalardagi ulushi, sof foizli marja bunchalik oshmagan.



**9-rasm. Mamlakatimiz bank tizimida likvid resurslar holati¹⁶
(mlrd.so'mda, 1-yanvar holatiga)**


Bank likvidlilik darajasi ham bank kredit kanali samaradorligiga ta'sir qilishini inobatga oladigan bo'lsak, O'zbekiston bank tizimida oxirgi yillarda tijorat banklarida ortiqcha likvidlilik darajasi qisman bo'lsada oshgan.

Dissertatsiya ishining beshinchi bobi "**Transmission mexanizm valyuta kanali samaradorligining qiyosiy va empirik tahlili**" deb nomlangan bo'lib, unda monetar siyosat transmission mexanizm valyuta kanali samaradorligining qiyosiy tahlili, valyuta kanalining bank tizimiga ta'sirining ekonometrik tahlili, hamda valyuta kanalining iqtisodiyotga ta'sirining ekonometrik tahlili kabi jihatlarga tadqiq etilgan.

Valyuta kursi kanalining makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'sir samaradorligini baholashda mamlakat eksporti va uning YaIMdagi ulushi ahamiyatlidir. Chunki valyuta kursi o'zgarishi to'g'ridan eksport hajmiga ta'sir etishi bizga ma'lum hamda ularning YaIMdagi ulushiga qarab valyuta kursi kanalining inflyatsiya va ishsizlik darajasiga hamda ishlab chiqarish ko'rsatkichlariga ta'sir kuchi aniqlanadi. O'zbekiston davlatining ichki va tashqi iqtisodiy holatini tahlil qilganda, tahlil davrini shartli ravishda to'rt qismga bo'lsak bo'ladi. Dastlabki qismda, ya'ni 1997-1999-yillardagi vaziyatni olamiz.

Biz yuqorida Markaziy bank valyuta kursi kanalining markoiqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'sirida eksportning o'rni haqida fikr bildirdik. Davlat eksporti bilan bir qatorda transmission mexanizm valyuta kanali samaradorligiga mamlakatdagi importi salohiyatining ham ta'siri katta.

¹⁶ O'zbekiston respublikasi Markaziy bankining rasmiy sayti www.cbu.uz ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.



10-rasm. Uzbekistonning export salohiyati (mln. AQSh dollarida)¹⁷

Mamlakat importining o‘zgarishi bizning milliy daromadimizga bog‘liq. Agar milliy daromad oshsa bizning importimiz ham oshadi va aksincha milliy daromad kamaysa importga bo‘lgan talab ham kamayadi. Chunki aholining xarid qilish qobiliyatidan kelib chiqqan xolda import tovarlar hajmi o‘zgaradi.



11-rasm. Uzbekistonning import salohiyati (mln. AQSh dollarida)¹⁸

O‘zbekiston davlatining import hajmining o‘zgarishini tahlil qilganda, bunda ham huddi export hajmi o‘zgarishini tahlil qilgan kabi, tahlil davrini shartli ravishda to‘rt qismga bo‘lsak bo‘ladi.

2017-yildan xalqaro iqtisodiy aloqalarning yaxshilanishi korxonalar tomonidan asosiy kapitalga kiritilayotgan investitsiyalar tarkibiga ham sezalarli ta’sir ko‘rsatgan.

¹⁷ <https://data.worldbank.org/indicator/NE.EXP.GNFS.ZS> ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.


¹⁸ <https://data.worldbank.org/indicator/NE.EXP.GNFS.ZS> ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.



12-rasm. Asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi va unda chet el investitsiyalari va kreditlari ulushi¹⁹

Tijorat banklari tomonidan xorijiy valyutada jismoniy va yuridik shaxslarga kredit ajratish transmission mexanizm valyuta kanali faoliyati samaradorligi bildiruvchi vositalardan biri hisoblanadi. Transmission mexanizm valyuta kanalida valyuta kursini o'zgartirish orqali tijorat banklarining xorijiy valyutadagi kreditlar hajmiga ta'sir etadi.

Tahlilimizda tijorat banklarining xorijiy valyutadagi kreditlarining umumiy kreditlaridagi ulushi orqali Markaziy bank valyuta kursi kanali samaradorligiga baho beramiz.




13-rasm. Banklar tomonidan chet el valyutasida ajratilgan kreditlar tendensiyasi (1 yanvar holatiga, trln.so'mda)²⁰

Transmission mexanizm valyuta kanali orqali yuridik va jismoniy shaxslarning banklarda qaysi valyutada depozit joylashtirish xohishiga ta'sir ko'rsata oladi. Agar Markaziy bank valyuta kursining katta intervalda tebranishiga

¹⁹ O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasining rasmiy ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

²⁰ O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankning rasmiy ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

yo‘l qo‘yib bersa, aholi milliy valyutadan o‘zida saqlashdan qochadi. Albatta bu vaziyatda aholi qattiq valyutada jamg‘armalarini saqlashni afzal ko‘radi.



14-rasm. Banklar tomonidan chet el valyutasida jalb qilgan depozitlari tendensiyasi (1 yanvar holatiga, trln.so‘mda)²¹

Biz ilmiy ishimizda valyuta kanalining makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarga ta‘sirini empirik tahlil qilganmiz. Bunda valyuta kanali faoliyatidan kelib chiqib, milliy valyuta almashinuv kursining ($LnExR_t$), mamlakatimiz eksportining real hajmi o‘zgarishi ($LnExport_t$) va import hajmining real qiymati o‘zgarishlariga ($LnImport_t$) ta‘sirini ko‘rib chiqamiz. Tanlangan ko‘rsatkichlar choraklik ko‘rsatkichlar bo‘lib, 2005q1-2024q2 davr oralig‘ini o‘z ichiga oladi.

4-jadval


Transmission mexanizm valyuta kanalining savdo balansiga ta‘siri.

	$LnExR_t$	$LnExport_t$	$LnImport_t$
$LnExR_{t-1}$	-0.355001 (0.11980) [-2.96323]	-0.862852 (0.62689) [-1.37641]	-0.775474 (0.37169) [-2.08635]
$LnExR_{t-2}$	-0.275895 (0.11893) [-2.31979]	-0.180789 (0.62233) [-0.29050]	-0.805855 (0.36899) [-2.18397]
$LnExR_{t-3}$	0.062111 (0.11320) [0.54868]	-0.102521 (0.59234) [-0.17308]	-0.122435 (0.35121) [-0.34861]

Strukturaviy vektorli avtoregressiya modeli orqali transmission mexanizm valyuta kanalining savdo balansiga ta‘sirini tahlil qiladigan bo‘lsak, unda valyuta kanalining faqatgina import hajmiga ta‘siri statistik ahamiyatga ega bo‘lmoqda. SVAR model natijasida eransmission mexanizm valyuta kanalining savdo balansiga ta‘siri borasida impuls reaksiyasi quyida keltirilgan.

²¹ O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankning rasmiy ma‘lumotlari asosida muallif ishlanmasi

Response to Cholesky One S.D. (d.f. adjusted) Innovations
95% CI using analytic asymptotic S.E.s



15-pacm. Makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarning foiz kanaliga nisbatan impuls reaksiyasi

Strukturaviy vektorli avtoregressiya modelidagi impuls reaksiyadan ko‘rishimiz mumkinki, indikativ foiz stavka bilan muomaladagi pul massasi hajmining o‘zgarishiga eksport hajmining impulsi ijobiy bo‘lmoqda va bu impuls ikki chorak saqlanib qolmoqda. Shuningdek, milliy valyuta almashinuv kursi pasayishiga eksport hajmining impulsi ham ijobiy bo‘lib, bu ta’sir uch chorak saqlanib turibdi.

Dissertatsiya ishining **“Inflyatsion targetlash sharoitida transmission mexanizm kanallari faoliyatini takomillashtirish istiqbollari”** deb nomlangan oltinchi bobida transmission mexanizm kanallarining iqtisodiyotga ta’sirini, xususan foiz kanali, bank kredit kanali va valyuta kanallarining samaradorligini oshirish bilan bog‘liq bo‘lgan muammolar va ularni bartaraf etish qaratilgan ilmiy-uslubiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Davlatimizda monetar siyosat transmission mexanizmini takomillashtirish jarayonida bir qator muammolar mavjud. Ushbu muammolarni quyidagicha umumlashtirish mumkin:

Moliyaviy bozorlarning zaifligi. mamlakatimizda moliyaviy bozorlar rivojlangan davlatlarga qaraganda zaifroq va nisbatan torroq bo‘lib, bu esa monetar siyosatning iqtisodiy faollikka ta’sir qilish imkoniyatlarini cheklaydi. Kredit bozorining o‘lchami kichikdir.

Qisqa va uzoq muddatli foiz stavkalari o‘rtasidagi bog‘liqlik zaifligi. Monetar siyosat orqali foiz stavkalari o‘zgarishi real iqtisodga yetib borishi uchun tijorat

banklari tomonidan qisqa muddatli stavkalar uzoq muddatli stavkalarga yetkazilishi lozim.


Valyuta kursiga bog‘liqlik. Odatda rivojlanayotgan davlatlarda mahalliy valyuta xalqaro bozorda mustahkam emas va kurslar keskin o‘zgarib turishi mumkin. Bu esa monetar siyosatni qo‘llashda cheklovlar qo‘yishi mumkin. Valyuta kursidagi tebranishlar inflyatsiyaga yoki valyuta rezervlarining kamayishiga olib kelishi mumkin.

Inflyatsiyaning yuqori darajada bo‘lishi. Rivojlanayotgan davlatlarda inflyatsiya darajasi odatda yuqori bo‘ladi, bu esa markaziy banklarning barqaror foiz siyosatini amalga oshirish imkoniyatini pasaytiradi. Inflyatsiyaning yuqori darajasi foiz stavkalarining tez o‘zgarishi orqali real iqtisodiy faoliyatga ta’sir qilish qiyinlashadi.

Ma’lumotlar va statistik kuzatuvlarning yetishmasligi. Monetar siyosatning samarasini aniqlash uchun ishonchli va zamonaviy iqtisodiy ma’lumotlar zarur. Rivojlanayotgan davlatlarda bunday ma’lumotlar yetarli emas, bu esa markaziy banklar uchun siyosat natijalarini oldindan baholashni qiyinlashtiradi.

Institutsional zaiflik va boshqaruvdagi kamchiliklar. Ko‘p rivojlanayotgan davlatlarda markaziy banklarning mustaqilligi past va monetar siyosat davlat siyosatidan ta’sirlangan bo‘ladi. Bu esa monetar siyosatning o‘z vaqtida va samarali qo‘llanilishini cheklaydi.

Bu muammolarni hal qilishda iqtisodiy islohotlar va moliyaviy sektorni rivojlantirish orqali markaziy banklarning samarali siyosat yuritish qobiliyatini oshirish muhim.



16-rasm. O‘zbekiston savdo balansi holati²²

2014-2016-yillarda savdo balansi qoldig‘i sezilarsiz bo‘lgan bo‘lsada, 2017-yildan savdo balansi borgan sari katta manfiy qoldiq kuzatilmoqda, garchi 2017-yildan milliy valyura kursi ikki barobatga yaqin devalvatsiya qilingan bo‘lsada. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, 2017-yilda savdo balansi defisiti


²² Ўзбекистон Республикаси Статистика агентлиги

1,5 mlrd.AQSh dollarini tashkil qilgan bo'lsa, 2023-yilda esa savdo balansi defisiti 13,8 mlrd.AQSh dollariga yetgan va bu oxirgi 30 yillik tariximizda eng katta defisit bo'lib qolmoqda.

Tahlilda tashqi iqtisodiyot sifatida narxi jahon bozorida belgilanadigan oltin, gaz narxlaridagi o'zgarishlarning, hamda tashqi mehnat kuchi migratsiyasining chiki iqtisodiyotga va mustaqil monetar siyosat yuritishga ta'siri ko'rib o'tilgan.

Tahlilda tanlangan ko'rsatkichlar sifatida tashqi faktorlardan jahon bozorida oltin narxining o'zgarishi ($LnGold_t$), tabiiy gaz narxining o'zgarishi ($LnGas_t$), hamda rezidentlar va norezidentlar o'rtasidagi tovar, xizmat, moliyaviy yoki boshqa aktiv evaziga iqtisodiy qiymatga ega bo'lgan boshqa obyektning olmagan holda (ish haqi to'lovlari) transfertlarni to'lovlari ($LnRemit_t$) olingan bo'lsa, ushbu ko'rsatkichlarning ichki iqtisodiyotga ta'siri sifatida qisqa muddatli indikativ foiz stavka ($LnINR_t$), milliy valyuta almashinuv kursi o'zgarishi ($LnExR_t$), yalpi ishlab chiqarish o'zgarishi ($LnGDP_t$), hamda ichki iqtisodiyotdagi inflyatsiya darajasining o'zgarishi ($LnCPI_t$) tanlab olingan.

Tahlilimizning navbatdagi bosqichida ko'rsatkichlarning korrelyatsiya matrisasini aniqlaymiz.



17-rasm. Ko'rsatkichlarning korrelyatsiya matrisasi

**Tashqi faktorlarning ichki iqtisodiyotga va moneta siyosatga ta'sirini
ifodalovchi SVAR modeli.**

Vector Autoregression Estimates (with restrictions)

	<i>LnGold_t</i>	<i>LnGas_t</i>	<i>LnRemit_t</i>	<i>LnINR_t</i>	<i>LnExR_t</i>	<i>LnGDP_t</i>	<i>LnCPI_t</i>
<i>LnGold_t</i> (-1)	0.000000 ---	0.000000 ---	0.000000 ---	-0.028433 (0.01840) [-1.54565]	-0.033731 (0.05210) [-0.64739]	-0.003418 (0.01700) [-0.20099]	0.026981 (0.01778) [1.51786]
<i>LnGold_t</i> (-2)	0.000000 ---	0.000000 ---	0.000000 ---	-0.060976 (0.01916) [-3.18185]	-0.131909 (0.05428) [-2.58788]	-0.036894 (0.01771) [-2.08281]	0.058240 (0.01852) [3.14504]
<i>LnGold_t</i> (-3)	0.000000 ---	0.000000 ---	0.000000 ---	-0.140978 (0.01943) [-2.10919]	0.056813 (0.05503) [1.03244]	-0.054524 (0.01796) [-3.03621]	0.208718 (0.04877) [2.06236]
<i>LnGold_t</i> (-4)	0.000000 ---	0.000000 ---	0.000000 ---	-0.030119 (0.01825) [-1.65015]	0.103438 (0.05170) [2.00084]	-0.014226 (0.01687) [-0.84323]	0.029949 (0.01764) [1.69806]
<i>LnGas_t</i> (-1)	0.000000 ---	0.000000 ---	0.000000 ---	-0.004194 (0.00635) [-0.66047]	-0.173060 (0.01799) [-4.06167]	0.003362 (0.00587) [0.57271]	0.004291 (0.00614) [0.69920]
<i>LnGas_t</i> (-2)	0.000000 ---	0.000000 ---	0.000000 ---	-0.012575 (0.00781) [-1.61042]	-0.028956 (0.02212) [-1.30929]	-0.007068 (0.00722) [-0.97930]	0.013026 (0.00755) [1.72641]
<i>LnGas_t</i> (-3)	0.000000 ---	0.000000 ---	0.000000 ---	0.216942 (0.01729) [2.32315]	-0.037022 (0.02066) [-1.79240]	0.115029 (0.00674) [2.22952]	0.016856 (0.00705) [2.39203]
<i>LnGas_t</i> (-4)	0.000000 ---	0.000000 ---	0.000000 ---	-0.016419 (0.00648) [-2.53260]	0.016504 (0.01836) [0.89877]	-0.008529 (0.00599) [-1.42319]	0.016786 (0.00626) [2.67936]
<i>LnRemit_t</i> (-1)	0.000000 ---	0.000000 ---	0.000000 ---	0.004400 (0.00380) [1.15733]	-0.035601 (0.01077) [-3.30584]	0.140093 (0.00351) [2.87201]	-0.004364 (0.00367) [-1.18766]
<i>LnRemit_t</i> (-2)	0.000000 ---	0.000000 ---	0.000000 ---	0.007303 (0.00497) [1.46970]	-0.235864 (0.01407) [-2.54836]	0.005958 (0.00459) [1.29734]	-0.007397 (0.00480) [-1.54063]
<i>LnRemit_t</i> (-3)	0.000000 ---	0.000000 ---	0.000000 ---	0.105206 (0.01488) [2.06684]	-0.029322 (0.01382) [-2.12143]	0.006686 (0.00451) [1.48230]	-0.005302 (0.00472) [-1.12441]
<i>LnRemit_t</i> (-4)	0.000000 ---	0.000000 ---	0.000000 ---	0.005803 (0.00346) [1.67646]	-0.014775 (0.00980) [-1.50713]	0.002756 (0.00320) [0.86149]	-0.005704 (0.00334) [-1.70531]

Model natijasidan ko‘rishimiz mumkinki, tashqi faktorlarning, xususan jahon bozorida oltin narxining o‘zgarishi, gaz narxining o‘zgarishi, hamda mamlakatimizda mehnat migrasiyasi hisobiga transfer to‘lovlarining musbat saldosing o‘zgarishi ichki iqtisodiyotga ta’siri yuqori bo‘lmoqda. Model natijalarini tahlil qilishda, dastlab tashqi faktorlarning moliya bozoriga ta’sirini o‘rganib chiqamiz.

Tahlil natijalariga ko‘ra, jahon bozorida oltin narxining bir foizga oshishi ikki chorak kechikish bilan milliy valyuta almashinuv kursini -0,13 foizga pasaytirgan bo‘lsa, qisqa muddatli indikativ kredit foizini esa uch chorak lag bilan -0,14 foizga pasaytirmoqda. Jahon bozorida oltin narxining oshishi bilan milliy valyuta almashinuv kursi o‘rtasida teskari bog‘liqlikning aniqlanganligi mantiqan to‘g‘ri hisoblanadi. Chunki, biz oltin qazib chiqaruvchi 10 talik davlatlar qatorida turamiz va bu oltinlarni chetga sotish orqali milliy valyuta kursi barqarorligini ta’minlaymiz. Shunday ekan chetga sotayotgan oltinimiz hisobiga qancha ko‘p chet el valyutasini olsak, shuncha valyuta bozorimizda chet el valyutasiga bo‘lgan ortiqcha talabni qondiramiz.

Shuningdek, jahon bozorida gaz narxining bir foizga oshishi esa, milliy valyuta almashinuv kursini bir chorak kechikish bilan -0,13 foizga pasaytirgan bo‘lsa, uch chorak kechikish bilan esa qisqa muddatli indikativ kredit foizini 0,22 foizga oshirmoqda. pasaytirmoqda. Bunning mantiqiy ma’nosi shundaki, jahon bozorida gaz narxining oshishi ichki iqtisodiyotda ham gaz narxini oshiradi va bu yakuniy tovar va xizmatlar narxlarining oshishiga olib keladi. Ichki iqtisodiyotda narx darajasining oshishi pulga bo‘lgan talabni oshiradi va bu krediti foiz stavkalarini oshirishga olib keladi.

Tahlil natijalariga ko‘ra, mamlakatimizda mehnat migrasiyasi hisobiga transfer to‘lovlarining musbat saldosing bir foizga oshishi ikki choraklik kechikish bilan milliy valyuta almashinuv kursini -0,23 foizga pasaytirgan bo‘lsa, iqtisodiyotdagi qisqa muddatli indikativ kredit foizini esa uch choraklik kechikish bilan 0,10 foizga oshirmoqda. Bizning fikrimizcha ushbu bog‘liqlik ham mantiqan to‘g‘ri qurilgan. Chunki, mamlakatimizda mehnat migrasiyasi hisobiga transfer to‘lovlarining musbat saldosing oshishi birjadan tashqari valyuta bozorida chet el valyutasining taklifini oshiradi va milliy valyutaning xorijiy valyutaga nisbatan almashinuv kursini oshiradi. Shuningdek, mamlakatimizda mehnat migrasiyasi hisobiga transfer to‘lovlarining musbat saldosing oshishi aholi milliy daromadini oshiradi va bu pulga bo‘lgan talabni oshirish orqali uning foizini ham oshiradi.

Tashqi faktorlarning tovarlar bozoriga ta’sirini modellashtirish natijasida ko‘rishimiz mumkinki, jahon bozorida oltin narxining oshishi ichki iqtisodiyotda yalpi ishlab chiqarishni real qiymatining oshishiga xizmat qilmayapdi. Aksincha jahon bozorida oltin narxining oshishi ichki iqtisodiyotda inflyatsiya darajasini oshirmoqda. Xususan, jahon bozorida oltin narxining bir foizga oshishi uch chorakdan keyin ichki iqtisodiyotda inflyatsiya darajasini 0,21 foizga oshirmoqda.

Shuningdek, jahon bozorida gaz narxining o‘zgarishi bilan ichki iqtisodiyotda tovarlar bozoriga ta’siri ham o‘rganilgan bo‘lib, unga ko‘ra, jahon bozorida gaz narxining bir foizga oshishi uch chorak kechikish bilan YaIMni 0,11 foizga oshirgan bo‘lsa, inflyatsiya darajasini 0,02 foizga oshirmoqda.

Tahlil natijalaridan ko‘rishimiz mumkinki, mamlakatimizda mehnat migrasiyasi hisobiga transfer to‘lovlarining musbat saldosining o‘zgarishi tovarlar bozoriga ijobiy ta‘sir ko‘rsatmoqda. Xususan, mamlakatimizda mehnat migrasiyasi hisobiga transfer to‘lovlarining musbat saldosining bir foizga oshishi ichki iqtisodiyotda yalpi talabni oshirgan holda bir chorak kechikish bilan yalpi yaiki mahsulotlarning real hajmini 0,14 foizga oshirmoqda.

XULOSA

Mamlakatimizda monetar siyosat transmission mexanizmini takomillashirishda quyidagi ilmiy-uslubiy taklif va amaliy tavsiyalar shakllantirildi.

Valyuta kanali faoliyati samaradorligini oshirish maqsadida banklararo valyuta bozorida chet el valyutasini sotish va sotib olish bo‘yicha operatsiyalarda valyuta kursi faqat bozor mexanizmlari asosida chet el valyutasiga bo‘lgan talab va taklifdan kelib chiqqan holda belgilanishi asoslandi;

Valyuta kanali faoliyati samaradorligini oshirish maqsadida iqtisodiyotning dollarlashuv darajasini kapaytirish bo‘yicha rag‘batlantiruvchi va regulativ chora-tadbirlarni ishlab chiqish taklif etildi;

Foiz kanali va kredit kanallarining iqtisodiyotga ta‘sirini oshirish maqsadida tijorat banklari kredit portfelida davlat ishtirokidagi korxonalarini va investitsiya dasturlarini moliyalashtirish uchun ajratilgan imtiyozli kreditlarning ulushini kamaytirish hamda bank tizimi barqarorligini oshirishi imliy asoslandi;

Monetar siyosat transmission mexanizmi metodologiyasi, xususan mexanizm kanallarini iqtisodiyotga ta‘sirining metodologik asoslari, mexanizm kanallari samaradorligini tahlil qilishning metodologik asoslari, hamda monetar siyosat transmission mexanizmi kanallari faoliyatini empirik tahlil qilishning metodologik asoslari takomillashtirildi;

Qimmatli qog‘ozlar bozorini rivojlantirishda davlat qimmatli qog‘ozlarini kupon stavkali, nol kupon stavkali va inflyatsiya darajasiga bog‘langan holda jismoniy shaxslar o‘rtasida ham joylashtirish orqali foiz kanalining samaradorligini oshirish taklif etildi;

Davlat qimmatli qog‘ozlarining ikkilamchi bozorini yanada rivojlantirish maqsadida auksion natijalarining hisob-kitoblarini T+2 standarti asosida amalga oshirish orqali investorlarga qo‘shimcha qulayliklar yaratish asoslandi;

Ochiq iqtisodiyot sharoitida monetar siyosat transmission mexanizm valyuta kanali orqali export-import operatsiyalar hajmiga ta‘sir etish va savdo balansini tartibga solish mumkinligi asoslandi;

Monetar siyosat transmission mexanizm foiz kanali orqali antiinflyatsion siyosatni samarali olib borish va provardida barqaror iqtisodiy o‘sish uchun zamin yaratishi asoslandi;

Mamlakatimizda valyuta siyosatini erkinlashtirish natijasida ichki iqtisodiyotdagi inflyatsiya darajasini, hamda tashqi iqtisodiyotda savdo balansidagi tabranishlarning ta‘sirini inobatga olgan holda milliy valyuta almashinuv kursining 2028 yilga qadar prognoz ssenariylari taklif etildi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc 22/29.12.2023.I.175.01
ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ
ТАШКЕНТСКОМ МЕЖДУНАРОДНОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЙ УНИВЕРСИТЕТ РЕНЕССАНСА

АБСАЛАМОВ АКРАМ ТОЛЛИБОЕВИЧ

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕХАНИЗМА ТРАНСМИССИИ
МОНЕТАРНОЙ ПОЛИТИКИ**

08.00.07 - Финансы, денежное обращение и кредит

АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора экономических наук (DSc)

город Ташкент - 2024 год

Тема диссертации доктора экономических наук (DSc) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером В2024.4.DSc/Iqt780.

Диссертационная работа выполнена в Образовательном Университете Ренессанс. Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.tiu.uz) и Информационно-образовательном портале "ZiyoNet" (www.ziyo.net).

Научный консультант:	Джумаев Нодир Хосниатович доктор экономических наук, профессор
Официальные оппоненты:	Бердияров Бахриддин Тавашарович доктор экономических наук, профессор Мирзаев Фарход Исмаилович доктор экономических наук, профессор Рахматов Хасан Уткирович доктор экономических наук
Ведущая организация:	ЧАБ Trastbank

Защита диссертации состоится на заседании Научного совета DSc.22/29.12.2023.1.175.01 при Ташкентском международном университете "50" "11" 2024 года в 10⁰⁰ часов. Адрес: 100114, г. Ташкент, ул. Кичик халка йули, 7. Тел.: (99895) 131-55-55; факс: (99895) 131-55-55; e-mail: info@tiu.uz

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского международного университета (зарегистрирована за № 65). Адрес: 100114, г. Ташкент, ул. Кичик халка йули, 7. Тел.: (99895) 131-55-55; факс: (99895) 131-55-55; e-mail: info@tiu.uz

Автореферат диссертации разослан "15" "11" 2024 года.
(реестр протокола рассылки № 24 от "01" "11" 2024 года).



Ш.Ш. Тураев
Председатель Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор экономических наук, профессор

И.Х. Абдурахмонов
Ученый секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор экономических наук, доцент

Д.А. Рахмонов
Председатель Научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней, доктор экономических наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации на соискание ученой степени доктора философии (PhD))

Актуальность и необходимость темы диссертации. Снижение высокого уровня инфляции в мировой экономике и обеспечение экономического роста имеют важное значение с использованием механизма трансмиссии монетарной политики. Опыт развитых стран показывает, что высокоорганизованный рынок капитала, рынок государственных ценных бумаг, денежный рынок, валютные рынки, а также рынки кредитов и депозитов являются необходимыми условиями для повышения эффективности каналов трансмиссионного механизма монетарной политики. В последние годы прогнозы, связанные с ростом мировой экономики, принимают положительный характер. В частности, ожидается, что рост мировой экономики увеличится с 3,6% в 2024 году до 4,2% в 2025 году.²³ Однако в отдельных регионах сохраняются низкие темпы экономического роста, существуют значительные препятствия в эффективности каналов трансмиссии монетарной политики, что, в свою очередь, приводит к высоким процентным ставкам при финансировании экономики.

В научных направлениях ведущих научно-исследовательских институтов и высших учебных заведений мира повышение эффективности трансмиссионного механизма монетарной политики и её каналов в обеспечении экономической стабильности занимает приоритетное место. В этих научных исследованиях посредством эмпирических анализов рассматриваются такие вопросы, как влияние процентного канала, валютного канала и канала банковских кредитов на экономическую стабильность. Однако такие аспекты, как влияние каналов трансмиссионного механизма на рынок капитала, процентные ставки на денежном рынке, ставки по кредитам и депозитам банков, их рост, а также эффективность в сдерживании инфляции, остаются недостаточно изученными. Особую актуальность сохраняют такие вопросы, как развитие рынка капитала, воздействие каналов трансмиссионного механизма на составляющие совокупного спроса, роль в сдерживании инфляции и достижение стабильности платежного баланса через валютный курс. Эти аспекты требуют проведения научных исследований, направленных на повышение эффективности каналов трансмиссионного механизма монетарной политики.

В Узбекистане активизация внимания к эффективному применению режима инфляционного таргетирования требует снижения процентных ставок на рынке кредитов, повышения темпов экономического роста в кратко- и среднесрочной перспективе, а также повышения эффективности каналов трансмиссионного механизма монетарной политики. Для повышения эффективности каналов трансмиссионного механизма монетарной политики важно обеспечить наличие индикативной процентной ставки на финансовом рынке и её значительное влияние на рыночные процентные ставки, а также влияние валютного канала на объемы внешнеторговых операций. Кроме того,

²³ <https://www.imf.org/en/Publications/WEO/weo-database/2024/October/download-entire-database>

повышение эффективности трансмиссионного механизма через воздействие на расходы государственного бюджета путём влияния на доходность государственных ценных бумаг, а также на потребительские расходы населения через процентные ставки по кредитам для физических лиц является актуальной задачей. Это подчёркивает необходимость изучения воздействия основной процентной ставки на рыночные процентные ставки, влияния канала банковских кредитов на ресурсную базу коммерческих банков, а также влияния валютного канала через валютный рынок на торговый баланс.

Данное научное исследование в определённой степени направлено на выполнение задач, предусмотренных Указом Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года № ПУ-60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы», Указом от 5 октября 2020 года № ПУ-6079 «Об утверждении Стратегии "Цифровой Узбекистан–2030" и мерах по её эффективной реализации», Указом от 12 мая 2020 года № ПУ-5992 «О Стратегии реформирования банковской системы Республики Узбекистан на 2020–2025 годы», Указом от 2 сентября 2017 года № ПУ-5177 «О первоочередных мерах по либерализации валютной политики», Постановлением Президента от 18 августа 2023 года № ПП-283 «О дополнительных мерах по совершенствованию механизма реформирования предприятий с государственным участием и коммерческих банков», Постановлением от 12 сентября 2017 года № ПП-3270 «О мерах по дальнейшему развитию и обеспечению устойчивости банковской системы Республики» и Постановлением от 23 марта 2018 года № ПП-3620 «О дополнительных мерах по повышению доступности банковских услуг», а также других нормативно-правовых актов, регулирующих соответствующую сферу.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данное диссертационное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики I. «Духовно-нравственное и культурное развитие демократического и правового общества, формирование инновационной экономики».

Обзор зарубежных научных исследований по теме диссертации²⁴:

Научно-практические исследования, направленные на повышение эффективности каналов трансмиссионного механизма монетарной политики, проводятся различными направлениями международными научными организациями, исследовательскими центрами, центральными банками и высшими учебными заведениями. В частности, исследования осуществляются Международным валютным фондом (International Monetary Fund, IMF), Всемирным банком (The World Bank, США), Национальным бюро экономических исследований (National Bureau of Economic Research, NBER, США), Банком международных расчетов (Bank of International Settlements, BIS, Швейцария), Федеральной резервной системой (Federal Reserve System,

²⁴ Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi www.imf.org, www.worldbank.org, www.nber.org, www.ecb.europa.eu, www.bis.org, www.federalreserve.gov, www.bankofengland.co.uk, www.cbu.uz va boshqa manbalar asosida tayyorlangan.

США), Банком Англии (Bank of England, Великобритания), Европейским центральным банком (European Central Bank, ЕС), Центральным банком Республики Узбекистан (Узбекистан), Принстонским университетом (Princeton University, США), Гарвардским университетом (Harvard University, США), Оксфордским университетом (Oxford University, Великобритания), Боннским университетом (University of Bonn, Германия), а также Финансовым университетом при Правительстве Российской Федерации (Россия).

В мире ведутся масштабные исследования, посвященные научно-теоретическим, организационно-экономическим и социально-политическим аспектам повышения эффективности каналов трансмиссионного механизма монетарной политики, включая оценку влияния кредитного канала на баланс коммерческих банков и стоимость активов хозяйствующих субъектов (European Central Bank), исследование роли канала стоимости активов и монетарных каналов в сдерживании инфляции на основе различных эконометрических моделей (International Monetary Fund, IMF), анализ влияния каналов трансмиссионного механизма нетрадиционной монетарной политики на экономическую стабильность (National Bureau of Economic Research, NBER), а также обеспечение согласованности процентного и валютного каналов в развивающихся странах (Финансовый университет при Правительстве Российской Федерации, Центральный банк Республики Узбекистан).

Степень изученности проблемы.

Научно-практические аспекты совершенствования трансмиссионного механизма монетарной политики всесторонне изучены и проанализированы в научных работах зарубежных экономистов, таких как Дж. М. Кейнс, Ирвинг Фишер, Кнут Виксель, М. Фридман, Дж. Тобин, Дж. М. Флеминг, Р. А. Манделл, Р. Дорнбуш, Ф. Модильяни, А. Андо, Дж. Э. Стиглиц, Б. Бернанке, М. Гертлер, А. С. Блиндер, Фредерик С. Мишкин, В. Рэйми, А. К. Кашьяп, Дж. С. Стайн, Дж. Б. Тейлор, Питер Н. Айрленд, А. Чеза-Бьянки, Г. Твейтс, А. Викондоа, Э. Фалк, М. Хоффманн и П. Хюртген, Г. Б. Эггертссон, Р. Э. Юэлсруд, Л. Х. Саммерс и Э. Г. Вольд²⁵, а также российских экономистов,

